


**NAVOIY VILOYATININGNING  
CHAKANA SAVDO TOVAR  
AYLANMASI**


**2019 yil yanvar oyi**

Navoiy viloyati bo`yicha joriy yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi 395,1 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 5,5 % ga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 41,1 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 36,3 %), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 354,0 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 2,8 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 57,5 mlrd. so`mni (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 1,0 % ga kamaygan) tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmiga ijobjiy ta'sir ko'rsatgan viloyat hududlari qatoriga Navoiy shahri, Karmana tumani, Qiziltepa tumani, Xatirchi tumani va Zarafshon shahrini misol keltirishimiz mumkin.




2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan o'sish sur'atlari Navoiy shahri, Zarafshon shahri, Navbaxor, Nurota, Xatirchi tumanlarida qayd etildi. Shuningdek, eng yuqori ko'rsatkich viloyatda Navoiy shahriga va aksincha eng past ko'rsatkich Uchquduq tumaniga to'g'ri kelmoqda.




**Mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo  
tovar aylanmasi ulushi, (%)**

**2018 yil yanvar**



**2019 yil yanvar**



Yuqoridagi solishtirma diagrammalardan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019 yil yanvar oyida 394,7 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiylajmga nisbatan ulushda) 0,03 foizga ko'paydi.

Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019 yil yanvar oyida 0,3 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiylajmga nisbatan ulushda) 0,03 foizga kamaydi.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan 36,3 % ga o`sdi va 41,1 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 10,4 % ulushiga to`g`ri keladi.

	Jami (mlrd.so`m)	Jamidan			
		Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	Ulushi, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	Ulushi, %da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>395,1</b>	<b>41,1</b>	<b>10,4</b>	<b>354,0</b>	<b>89,6</b>
<i>shahar va tumanlar:</i>					
Navoiy shahar	144,4	38,5	26,6	106,0	73,4
Zarafshon shahar	33,2	0,5	1,4	32,7	98,6
Karmana tuman	58,8	0,3	0,5	58,5	99,5
Konimex tuman	11,0	0,1	0,6	10,9	99,4
Qiziltepa tuman	48,7	1,0	2,1	47,7	97,9
Navbahor tuman	21,5	0,1	0,4	21,5	99,6
Nurota tuman	14,4	0,2	1,6	14,1	98,4
Tomdi tuman	2,7	0,03	0,9	2,7	99,1
Uchquduq tuman	15,3	0,1	0,4	15,3	99,6
Xatirchi tuman	45,0	0,4	0,8	44,6	99,2


Kichik tadbirdorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 354,0 mlrd. so`mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar oyiga nisbatan 2,8 %ga o`sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 89,6 %ga teng kelmoqda.

Joriy yilning yanvar oyi tahliliy natijalariga qaraganda, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo`yicha Navbahor (99,6%), Uchquqduq (99,6%), Karmana (99,5%), Konimex (99,4%) va Xatirchi (99,2%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 10,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush asosan Navoiy shahrida (26,6%) va Qiziltepa (2,1%) tumanida kuzatilgan.



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (**36,6 foiz**), Karmana tumani (**14,9 foiz**), Qiziltepa tumani (**12,3 foiz**), Xatirchi tumani (**11,4 foiz**), va Zarafshon shahri (**8,4 foiz**) chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.



Jumladan, 2019 yilning yanvar oyi mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,3 %ni tashkil etib, 8,9 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 0,8 % o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 90,0 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


**NAVOIY VILOYATININGINING  
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**

**2019 yil yanvar oyi**

2019 yil yanvar oyida viloyat bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 92,1 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 137,3 % ga o`sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi hajmiga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar oyi yakunlariga ko`ra, 49,8 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 0,4% ga oshdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 54,1 %ni tashkil qilmoqda.

Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar tovar aylanmasining ulushi esa 45,9 % ni tashkil etdi.



- Navoiy sh
- Karmana
- Qiziltepa
- Nurota
- Uchquduq
- Zarafshon sh
- Konimex
- Navbahor
- Tomdi
- Xatirchi


Quyidagi jadval ma'lumotlari tahlili asosida viloyatda faqatgina Navoiy shahrida yirik korxonalar tomonidan ulgurji savdo tovaraylanmasi mavjud bo'lib, qolgan 9 ta hududda asosan ulgurji savdo tovaraylanmasi kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan amalga oshirilgan.

Shuningdek, shahar va tumanlar orasida eng yuqori ulgurji savdo tovaraylanmasiga ega bo'lgan hudud bu Navoiy shahri bo'lib, uning tovar aylanmasi 62,2 mlrd.so'mni tashkil etadi (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,7 barobarga oshdi).


	Jami (mlrd.so`m)	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	Ulushi, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	Ulushi, %da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>92,1</b>	<b>49,8</b>	<b>54,1</b>	<b>42,3</b>	<b>45,9</b>
Navoiy shahar	62,2	19,9	32,1	42,3	67,9
Zarafshon shahar	2,6	2,6	100,0	-	-
Karmana tuman	13,9	13,9	100,0	-	-
Konimex tuman	0,6	0,6	100,0	-	-
Qiziltepa tuman	5,2	5,2	100,0	-	-
Navbahor tuman	3,1	3,1	100,0	-	-
Nurota tuman	0,7	0,7	100,0	-	-
Tomdi tuman	0,0003	0,0003	100,0	-	-
Uchquduq tuman	0,6	0,6	100,0	-	-
Xatirchi tuman	3,1	3,1	100,0	-	-

**Mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo  
tovar aylanmasi ulushi, (%)**

**2018 yil yanvar**





**2019 yil yanvar**



Yuqoridagi solishtirma diagrammalardan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019 yil yanvar oyida 92,0 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,02 foizga ko'paydi.

Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019 yil yanvar oyida 0,1 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,02 foizga kamaydi.



Tahlil natijalariga ko'ra Navoiy viloyatida ulgurji savdo tovar aylanmasining asosini Navoiy shahridagi ulgurji savdo tovar aylanmasi tashkil qiladi va xuddi shuningdek ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (**67,6 foiz**),

Karmana tumani (**15,1 foiz**) va Qiziltepa tumani (**5,6 foiz**) ulgurji savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo'limi  
Tel.: (0871) 230-84-36